



Metaphor: from definition to typology

Khamida JURAKOBILOVA¹

Karshi State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2025

Received in revised form

15 January 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

15 March 2025

Keywords:

cognitive metaphor,
typology,
linguistic phenomenon,
conceptual system,
concept,
cognitive science.

ABSTRACT

Since the last decades of the past century, metaphor has deeply penetrated all aspects of human life, as can be seen from numerous studies conducted in this field. The development of cognitive science has greatly contributed to the formation of such approaches. This research has also been carried out within this framework, discussing various typologies of metaphor as well as its linguistic and cognitive analysis. The article explores metaphor as a linguistic phenomenon that contributes to the development of human thinking.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1-pp51-56>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Metafora: ta'rifdan tipologiyaga

Kalit so'zlar:

kognitiv metafora,
tipologiya,
lingvistik hodisa,
konseptual tizim,
konsept,
kognitiv fan.

ANNOTATSIYA

O'tgan asrning so'nggi o'n yilliklaridan boshlab metafora inson hayotining barcha jabhalariga chuqur singib ketganligini bu sohada olib borilayotgan ko'plab tadqiqotlar misolida ko'rish mumkin. Bunday yondashuvlarning shakllanishiga kognitiv fanning rivojlanishi katta hissa qo'shdi. Mazkur tadqiqot ham aynan shu doirada amalga oshirilgan bo'lib, unda metaforaning turli tipologiyalari, uning lingvistik va kognitiv tahlili muhokama qilinadi. Maqolada metafora inson tafakkurining rivojlanishiga xizmat qiladigan lingvistik hodisa sifatida tadqiq qilingan.

¹ Associate Professor, Karshi State University. E-mail: xamidajuraqobilova@gmail.com

Метафора: от определения к типологии

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

когнитивная метафора,
типология,
языковой феномен,
концептуальная система,
концепт,
когнитивная наука.

С последних десятилетий прошлого века метафора глубоко проникла во все сферы жизни человека, что можно увидеть на примере многочисленных исследований, проводимых в этой области. Развитие когнитивных наук внесло значительный вклад в формирование таких подходов. Данное исследование также выполнено в этом направлении, и в нем рассматриваются различные типологии метафоры, ее лингвистический и когнитивный анализ. В статье метафора изучается как лингвистическое явление, способствующее развитию человеческого мышления.

KIRISH

Ma'lumki, inson miyasi mohiyatan o'zgaruvchan va nihoyatda yaratuvchandir. Unda har daqiqada kutilmagan jarayonlar va mexanizmlar sodir bo'ladi, lekin ular ko'pincha oldindan aytish mumkin bo'lgan o'xshashliklarni, taqqoslashlarni, solishtirishni keltirib chiqaradi. Biron narsa yoki hodisaning nomi tez fursatda nimasi bilandir birinchisini eslatadigan va unga o'xshash boshqa bir narsaning ma'nosiga aylanishi mumkin. Fanda bu mexanizm ma'no ko'chishi deb ataladi va uni metafora deb ham atash mumkin. [2] Metafora – bu tilshunoslik, falsafa, adabiyotshunoslik va kognitiv fanlarning eng muhim tushunchalaridan biri bo'lib, inson tafakkuri va nutqining ajralmas qismidir. U faqatgina badiiy bezak vositasi emas, balki insonning atrof-muhitni idrok etishi va tushunish jarayonida muhim rol o'ynaydigan lingvistik hodisadir.

So'nggi o'n yilliklarda kognitiv fanlarning rivojlanishi natijasida metaforaga yangicha qarash shakllandi va u lingvistik hamda tafakkur jarayonining muhim elementi sifatida o'rganila boshlandi. Kognitiv fanda metaforaning ahamiyati uning fundamental bilish mexanizmi sifatida tushunilishi bilan bog'liq bo'lib, uning til vositasidagi ifodalari inson ongidagi mental tuzilmalarni aks ettiradi. Shu sababli, metaforalar orqali insonning borliqni idrok etish, turkumlashtirish, baholash va anglash jarayonlarini o'rganish mumkin. Metafora nafaqat axborot uzatish, balki badiiy va estetik maqsadlarni ifodalash vositasi hamdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Metaforaga bo'lgan qarashlarning rivojlanish tarixi qadimgi davrlarga borib taqalgani bois metafora nazariyasining tarixiy sharhiga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar mavjud. Metafora uzoq vaqt davomida poetika va ritorika doirasida o'rganilgan bo'lib, u adabiyotshunoslikda trop va nutqiy figura sifatida tahlil qilingan. Metaforaning birinchi tadqiqotchilaridan bo'lgan yunon faylasufi Aristotel: "Eng tushunarli nutq umumiy iste'moldagi so'zlardan iborat bo'ladi, ammo juda oddiy bo'ladi. Yuksak va nafis nutq esa oddiy nutqqa xos bo'lmagan so'zlardan foydalanadi. Odatiy bo'lmagan so'zlarga glossalar, metaforalar, cho'zib aytiladigan ifodalar va odatiy nutqqa kirmaydigan barcha unsurlarni nazarda tutaman", deydi. [1] Jerar Szimanskning fikricha: "Metafora bizni haqiqatdan uzoqlashtirgandek tuyuladi, aslida u bizni haqiqatga yaqinlashtiradi. U biz ko'p mehnat evaziga o'rganishimiz kerak bo'lgan ikkinchi til emas, balki biz gapirayotgangan birinchi ona tilimizdir". [9]

Kvintilian metaforani “qisqartirilgan o’xshatish” deb atagan va metafora hamda o’xshatish o’rtasidagi farqni quyidagicha izohlagan: “O’xshatishda biz tasvirlamoqchi bo’lgan predmet nima bilandir qiyoslanadi, metafora esa o’sha predmetning nomi o’rnida qo’llaniladi. Agar biz odam haqida, u biron narsani sherdek (“как лев”) qildi desak, bu – o’xshatish, agar “u – sher” (“он – лев”) desak, bu – metafora”. [3] Sitseron metaforani dastlab tilning lug’at tarkibi qashshoqligi zaruratidan paydo bo’lgani, keyinchalik esa go’zalligi va jozibasi sabab uning qo’llanish ko’lami kengayganligini ta’kidlaydi. [10] Ispan faylasufi Xose Ortega-i-Gasset metaforani “ongning ajralmas quroli, ilmiy tafakkurning shaklidir”, deb ataydi. [11]

Metaforani tushunish Aristotelning “nutq shakli” haqidagi tushunchalaridan buyon bugungi kungacha sezilarli evolyutsion rivojlanish yo’lini bosib o’tdi. Hozirgi vaqtda metafora falsafa, mantiq, ritorika, lingvistika, kognitiv lingvistika, psixolingvistika, psixologiya va boshqa ko’plab fanlar qatorida o’rganilmoqda.

Kognitiv metafora nazariyasiga asos solgan amerikalik tilshunos olim J. Lakoff va mashhur faylasuf M. Jonsonlarning ta’kidlashicha: “Metafora odatda faqat tilga xos xususiyat sifatida, ya’ni tafakkur va harakatdan ko’ra so’zlar bilan bog’liq hodisa sifatida qaraladi. Shu sababli, aksariyat odamlar metaforasiz ham bimalol tushunish va muloqot qilish mumkin deb o’ylashadi. Aksincha, biz shuni aniqladikki, metafora kundalik hayotda hamma joyda mavjud bo’lib, nafaqat til, balki tafakkur va harakat bilan ham bog’liqdir. Bizning odatiy konseptual tizimimiz, ya’ni fikrlashimiz va harakat qilishimiz, aslida metaforik tabiatga ega”. [5] “Konseptual metafora bu shunchaki stilistikaning metodi bo’libgina qolmasdan, tafakkur va fikrlashning usulidir”. [4]

A. Richardsning ta’rifiga ko’ra: “Metaforani tilning hamma jabhalarida mavjud tamoyili ekanligini oson kuzatish bilan tasdiqlash mumkin. Oddiy nutqda biz ketma-ket uchta gapda ham metafora uchramaydigan holatni deyarli uchratmaymiz. Hatto aniq fanlarning qat’iy tilida ham metaforadan voz kechish katta sa’y-harakatlarni talab qiladi”. [6]

Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, metafora shunchaki poetik tasavvur va ritorik bezak vositasi, tilning qo’shimcha mexanizmi emas, balki insonlarning hayotiy tajribalari davomida shakllanadigan nutqiy qobiliyati, ongu tafakkuri darajasining mahsuli, kundalik hayotning ajralmas qismidir. Bir so’z bilan aytganda “til o’z mohiyatiga ko’ra metaforadir”. Bizning fikrlash tarzimiz, tajribalarimiz va kundalik faoliyat yuritishimiz katta ehtimol bilan metaforalarga bog’liq.

TADQIQOT USULLARI

Metaforalar tipologiyasi, uning lingvistik va kognitiv tahlilini tadqiq qilishda tasniflash, tizimli tahlil, tavsiflash metodlardan foydalanildi.

NATIJALAR VA MULOHAZA

Amerikalik tadqiqotchilar J. Lakoff va M. Jonsonlarning “*Metaphors We Live By*” (“Biz yashaydigan metaforalar”) asari kognitiv lingvistikaning rivojlanishida muhim rol o’ynadi. Tadqiqotchilar metaforalar faqatgina badiiy ifoda vositasi emas, balki inson tafakkuri va dunyoni idrok etish usulining ajralmas qismi ekanligini isbotlab berdi. Ular insonning fikrlash jarayoni va nutqini shakllantiradigan uchta asosiy konseptual metafora turini ajratib ko’rsatdi:

- oriensatsion metaforalar (fazoviy yo’nalishga asoslangan);
- ontologik metaforalar (tushunchalarni moddiy narsa yoki obyekt sifatida ko’rsatishga asoslangan);
- strukturaviy metaforalar (bir sohaning tuzilmasini ikkinchisiga ko’chirish). [4]

Oriyentatsion metaforalar odatda fazoviy munosabatlarga asoslangan bo'lib, insonning jismoniy (tana) va madaniy tajribalari natijasida shakllanadi. Metaforaning bu turi qarama-qarshi fazoviy tushunchalar (*yuqori-past, ichkari-tashqari, old-orqa, chuqur-sayoz, markaz-chet* kabi) asosida konseptuallashadi va odamlar o'z tana harakatlari va ma'naviy-madaniy tajribalariga asoslanib bu metaforalarni tabiiy ravishda qabul qiladilar. Mualliflar oriyentatsion metaforalarning har biri uchun konsepsiyalar bizning jismoniy va madaniy tajribamizdan qanday paydo bo'lganligini ko'rsatish uchun quyidagi oriyentatsion metaforalarni tahlil qilib berdi:

Happy is up/ Sad is down (Baxt-yuqoriga / Qayg'u-pastga)

Health and life are up (Sog'lik va hayot – yuqoriga)

Sicknes sand deathare down (Kasallik va o'lim pastga)

Having controlor force is up / Being subject to contro lorforceis down

(Hokimiyat va kuch yuqoriga / Nazorat va bo'ysunish pastga)

Tadqiqotchilar Good is up/Bad is down (Yaxshi yuqoriga/yomon-pastga) oriyentatsion metaforasi uchun baxt, sog'liq, hayot va kuch, ya'ni yaxshi deb tavsiflanadigan hamma narsani jismoniy asos sifatida ko'rsatishadi.

Oriyentatsion metaforalar qarama-qarshi fazoviy munosabatlar bilan xarakterlangani bois, ko'pgina madaniyatlarda odatda, ijobiy tushunchalar *muhabbat, sog'liq, xursandchilik, baxt yuqoriga, g'am, qayg'u, kasallik, hasrat* kabi salbiy tushunchalar esa pastga yo'naltirilgan bo'ladi. Chunki, inson baxtli bo'lganda ko'tarinki kayfiyatda, g'am chekkanida esa aksincha, tushkin holatda bo'ladi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bunday metaforalarning shakllanishiga insonlarning jismoniy hamda madaniy tajribalari asos bo'ladi va ular tarixiy jarayonlarga bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham oriyentatsion metaforalarning konseptuallashishi turli madaniyatlarda bir-biridan farq qilishi va turli davrlarda barqaror bo'lmasligi mumkin. Avval salbiy deb hisoblangan tushunchalar vaqt o'tishi bilan yo'nalishini o'zgartirishi mumkin. Tadqiqotlar, greklarda kelajak insonning orqasida, o'tmish esa uning oldida degan tasavvurlar borligini tasdiqlaydi. Bu esa o'tmish insonning xotirasida saqlanib qolishi va inson uchun ma'lum bo'lishi, kelajak esa noma'lum bo'lishi bilan izohlanadi. [7] Morokko, Xitoy xalqlari tafakkurida ham kelajak-orqada, o'tmish-oldinda konseptual xaritasi shakllanganining guvohi bo'lish mumkin. [8]

O'zbek madaniyatida ham boshqa xalqlar, jumladan, ingliz madaniyatidagi kabi *Happy is up/ Sad is down (Baxt-yuqoriga / Qayg'u-pastga)* tushunchalari insonlarning jismoniy harakatlari bilan bog'liq "yuqori-past" fazoviy munosabatlari orqali aks etgan ko'plab yo'nalishli metaforalarda namoyon bo'ladi:

Boshim *osmonga yetdi*.

Men baxtdan *yettinchi osmondaman*.

Ko'nglim *tog'dek ko'tarildi*.

Ko'nglim *cho'kdi*.

Ko'nglimga *iztirob tushdi*.

Ontologik metaforalarning kognitiv ta'sir mexanizmi esa inson bilishiga xos bo'lgan oddiy qonuniyatga asoslanadi, ya'ni noma'lum narsalar ma'lum narsalar orqali anglanadi. Insonning individual rivojlanishi, ya'ni ontogenezi* jarayonida atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirga kirishadi va o'z ongida turli mental tasvirlarni shakllantiradi. Inson dunyo haqidagi tasavvurlarini cheklangan makon va ichki fazosiga ega obyektlar sifatida konseptuallashtiradi. Fazoni muntazam ravishda chegaralash orqali insonning ongida

* Ontogenez (yunoncha ontos – borliq va genez) – organizmning individual rivojlanishi, uning shakllana boshlashidan hayotning oxirigacha sodir bo'ladigan ketma-ket o'zgarishlar majmui.

asosiy ontologik konseptlar shakllanadi. Inson abstrakt tushunchalarni tushunishda ana shu jismoniy tajribalari orqali tanish bo'lgan tushunchalardan foydalanadi. Bu esa tilda ontologik metaforalarning paydo bo'lishi olib keladi. Ontologik metaforalar mavhum tushunchalarni idish, obyekt, jismoniy hodisa, muvozanat yoki substansiyalar sifatida ko'rsatadi. Bu inson ongiga ularni tushunish va ularga nisbatan qandaydir munosabat bildirishni osonlashtiradi. Bu metaforalar ham insonning jismoniy va madaniy tajribalariga asoslanadi. Masalan:

G'am uning boshini egib qo'ydi.

Yuragi to'lib ketdi.

Hayot yo'llarida adashdi.

Uning sabr kosasi to'lib-toshdi.

Ontologik metaforalarning turli maqsadlarga xizmat qilishi va turli maqsadlarni aks ettirishini Lakoff va Jonsonlar "INFLATION IS AN ENTITY" ("Inflyatsiya bu – moddiylik") ontologik metaforasi orqali asoslab berdi. Bu yerda "inflyatsiya" avtonom shaxs sifatida tasavvur qilinadi va narxlarning ko'tarilish hodisasiga odamlarning munosabati ifodalanadi. Bu esa bizga inflyatsiyani muhokama qilish tajribasiga murojaat qilish imkonini beradi:

Inflation is lowering our standard of living.

Inflyatsiya bizning turmush darajamizni pasaytirayapti.

If there's much more inflation, we'll never survive.

Agar inflyatsiya oshib ketsa, biz omon qolmaymiz.

We need to combat inflation.

Biz inflyatsiyaga bilan kurashishimiz kerak.

Buying land is the best way of dealing with inflation.

Yer sotib olish inflyatsiyaga qarshi kurashish uchun yaxshi vosita.

Inflation makes me sick.

Inflyatsiya jonimga tegdi.

Bizning madaniyatimizda ham inflyatsiya moddiy narsa sifatida talqin qilinadigan ko'plab misollarni uchratish mumkin. Masalan:

Inflyatsiyaga qarshi kurashishimiz kerak.

Inflyatsiya bizning turmush darajamizni pasaytirdi.

Inflyatsiya iqtisodiyotimizga katta zarar keltirdi.

Inflyatsiyadan xech kim chetda qolmaydi.

Hukumat inflyatsiyani nazorat ostiga oldi.

Inflyatsiya butun bozorni qamrab oldi.

Strukturaviy metaforalar inson tafakkuridagi abstrakt tushunchalarni anglashda asosiy kognitiv mexanizmlardan biri bo'lib, bir konseptual sohaning (manba sohasi) tuzilmasi boshqa sohaga (maqsad sohasi) ko'chiriladi, ya'ni bir tushuncha boshqa bir tushuncha yordamida konseptuallashtiradi. Strukturaviy metaforalar aniq belgilangan va yuqori darajada tuzilgan tushunchadan foydalanib, boshqa bir tushunchani shakllantirishga yordam beradi.

J. Lakoff va M. Jonsonlar oddiy tildagi metaforik iboralar insonning kundalik faoliyatini tashkil qiluvchi tushunchalarning metaforik tabiatini qanday yoritib berishi mumkinligini zamonaviy ingliz tilidagi "Time is money" ("Vaqt – bu pul") metaforik tushunchasi orqali quyidagicha izohlab bergan:

You're wasting my time. Siz mening vaqtimni behuda sarf qilyapsiz.

This gadget will save you hours. Ushbu qurilma sizning ko'p vaqtingizni tejaydi.

I don't have the time to give you. Mening senga ajratadigan vaqtim yo'q.

How do you spend your time these days? Sen vaqtingni qanday o'tkazding?

I've invested a lot of time in her. Men unga ko'p vaqt sarfladim. [4]

Bu metafora odamlarga vaqtni qadrlash va undan samarali foydalanish kerakligini anglatuvchi iqtisodiy resurs sifatida ko'rsatiladi.

O'zbek madaniyatida ham vaqtga moddiy resurs kabi munosabatni ifodalovchi ko'plab metaforalar mavjud: *"Vaqtim juda oz"*; *"Bu ishni amalga oshirishga ko'p vaqt sarfladim"*; *"Vaqtimni o'g'irayapsiz"*; *"Sizga qancha vaqt kerak bo'ladi?"* kabi misollarga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, vaqt – bu pul, kognitiv metaforasidagi mavhum "vaqt" tushunchasini xuddi moddiy narsa kabi, uni *tejash, o'g'irlash, sarflash, bировга berish, uni topish* mumkinligini anglash mumkin.

XULOSA

Ta'rifdan tipologiyagacha bo'lgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, metafora inson tafakkuri va tilining ajralmas qismi, tafakkurni shakllantirish, tushunchalarni izohlash va muloqotni samarali tashkil etishning muhim usulidir. Kognitiv fanlarning rivojlanishi bilan metaforaga bo'lgan yondashuv ham o'zgardi va uning ta'siri nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy, ilmiy va texnik jarayonlarda ham o'z aksini topmoqda. Metaforani chuqur o'rganish inson tafakkuri va tilining qanday ishlashini tushunishga yordam beradi va bu borada tadqiqotlar hali uzoq davom etadi.

Biz metaforalar tipologiyasini tahlil qilishda amerikalik tadqiqotchilar J. Lakoff va M. Jonsonning konseptual metaforalar tipologisiiga asoslandik. Bu nazariya shuni ko'rsatadiki, odamlar dunyoni faqat so'zlar orqali emas, balki metaforalar orqali ham tushunadilar. Ushbu metaforalar inson ongidagi fikrlash va tushunish jarayonining markaziy mexanizmi bo'lib, til orqali abstrakt, murakkab, psixologik va madaniy tushunchalarni ifoda etishda asosiy rol o'ynaydi. Ular inson tajribasiga asoslangan bo'lsa-da, turli madaniyatlarda turlicha shakllanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аристотель. Поэтика. – Ленинград.: ACADEMIA, 1927. – С.68.
2. Дружинин А.В. Английский перфект: понять и объяснить. Иностранные языки в школе, 2016, № 2. –С.49-53.
3. Квинтилиан, Марк Фабий. Античные теории языка и стиля, под общей редакцией О.М.Фрейденберг. – Ленинград, 1936. –С.218–219.
4. Лакофф Джордж, Джонсон Марк. Метафоры, которыми мы живем: –М.: Едиториал УРСС, 2004. –256 с.
5. Lakoff J., Jonson M. Metaphore We Live By. The University of Chicago Press. Chicago and London. 1980, –Р.3.
6. Ричардс А. Философия риторики // Теория метафоры. –М., 1990. – С. 46 с.
7. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Школа "Языки русской культуры", 1997. – 991 с.
8. Файзиева А.А. Ориентацион концептуал метафораларнинг ўзига хос хусусиятлари. International scientific conference "Innovative trends in science, practice and education". 2022, Munchen, (Germany). – P.26-29.
9. Gérard Szymansk. La métaphore, voie royale de la communication. -Paris, Inter Éditions, 2014 –P.6.
10. Цицерон, Марк Туллий. Античные теории языка и стиля. Под общей редакцией О.М.Фрейденберг. – Ленинград, 1936. –С.216.
11. Хосе Ортега-и-Гассет. Две великие метафоры. Теория метафоры. – Москва: "Прогресс", 1990. –С. 71.